

**ELEKTRON HUJJAT TAYYORLASHDA
INTERNET MANBALARI BILAN ISHLASH**

Shadiyeva Dilfuza Shamirzayevna,
*“International school of finance
technology and science” instituti,
filologiya va tillarni o‘qitish kafedrası
o‘qituvchisi,
dotsent v.b., filologiya fanlari nomzodi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14205193>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada elektron hujjatlar, ularning turlari, hujjatlar xavfsizligini ta’minlash, ularni tuzish, uzatish, shu bilan birga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali haqida ma’lumotlar berilgan. Ish yuritishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining ahamiyati yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** texnologiya, ma’lumot, ma’lumotlar xavfsizligi, hujjat, elektron shifrlash, shtamp, sertifikat, raqamlashtirish, QR kod, interfeys, blokcheyn, elektron hujjat.*

***Annotation.** This article provides information about electronic documents, their types, ensuring the safety of documents, their compilation, transfer, as well as about the Unified Portal of Interactive Public Services. The importance of a single interactive portal of public services in office management is highlighted.*

***Keywords:** technology, information, data security, document, electronic encryption, stamp, certificate, digitization, QR code, interface, blockchain, electronic document.*

Bugungi kunga kelib hujjatlarning yozma (xatlar, shartnomalar, kitoblar), elektron (elektron pochta, PDF), fotografik (fotosuratlar) va boshqa turlari mavjud. Ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan hujjatlar raqamli shaklga o‘tib bormoqda. Bu ularni yozish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonini soddalashtirdi. Biroq bu ma’lumotlar xavfsizligini saqlashda yangi muammolarni keltirib chiqardi. Vaqt o‘tishi bilan hujjatlarni shikastlanish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki yo‘q qilishdan himoya qilish zarurati paydo bo‘ldi. Bu hujjatlar uchun seyflar, qog‘oz maydalagichlar va turli xil elektron shifrlash usullarini topishga sabab bo‘ldi. Shuningdek, hujjatning haqiqiylikini ta’minlash uchun shtamplar, imzolar, to‘lqinsimon belgilar va raqamli sertifikatlar kabi turli usullar kashf etildi. Hujjatlar ko‘pincha tarixiy ahamiyatga ega yoki rasmiy manbalar sifatida saqlanadi. Kutubxonalar, muzeylar va arxivlar millionlab hujjatlarni o‘z ichiga oladi, ularning ba’zilari bir necha ming yillik tarixga ega. Ularni saqlab qolish uchun arxivlar ham raqamlashtirishga o‘tmoqda. Raqamlashtirish ishimizni qanchalik yengillashtirganiga

qaramay, qog'oz hujjatlar jamiyatda hamon muhim rol o'ynamoqda. Raqamlashtirish nafaqat eski hujjatlarni saqlab qolish, balki zarur ma'lumotlarni topishni osonlashtirish va Internet orqali keng auditoriyaga kirish imkonini beradi. Hujjatlar chop etiladigan qog'oz ham vaqt o'tishi bilan rivojlanib juda murakkab va davomli jarayonni bosib o'tib, qadimgi papirus, pergament, bambuk taxtachalaridan zamonaviy yuqori sifatli qog'ozlargacha yetib keldi.

Zamonaviy hujjatlar, shuningdek, texnologiyalarning ko'pgina sohalari bilan uyg'unlashib bormoqda. Masalan, ma'lumotlarga tezkor kirish uchun QR kodlari, multimedia fayllari yoki veb-resurslarni bog'laydigan giperhavolalardan foydalanilmoqda. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, texnologiyalarning rivojlanishi bilan hujjatlar imkoniyati cheklangan insonlar uchun qulayroq bo'lib bormoqda. Sezgir interfeyslar, ekranni o'qish moslamalari va boshqa zamonaviy texnologiyalar imkoniyati cheklanganlarga hujjatlar bilan samarali ishlash imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda kirib kelgan blokcheyn texnologiyasi hujjatlarni qalbakilashtirish va o'zgartirishlardan saqlash uchun ishlatiladi. Bu, ayniqsa, hujjatlarning haqiqiyliги va yaxlitligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuridik, moliyaviy va davlat hujjatlari uchun juda zarurdir. Ko'pgina hujjatlar, ayniqsa, yuridik yoki rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar muayyan xalqaro standartlar yoki me'yorlarga mos kelishi bugunning talabi bo'lib qoldi. Misol uchun, ko'pgina mamlakatlarda pasport yoki haydovchilik guvohnomasi kabi rasmiy hujjatlarning haqiqiyliги va xavfsizligini ta'minlash uchun yagona umumiy standart mavjud. Hujjatlarni xalqaro tan olish uchun hujjat chiqarilgan mamlakatdan tashqarida foydalanish maqsadida uning qonuniyligini tasdiqlovchi apostil yoki legallashtirish kabi tartiblar joriy etilmoqda.

Yana bir jihat: kompyuter texnologiyalarining taraqqiy etishi, sun'iy intellektning takomillashuvi ko'pgina sohalarda bo'lgani kabi ish yuritishda bir tomondan, qulayliklarni, ikkinchi tomondan, qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Eng katta muammo bu, ayniqsa, moliyaviy hujjatlarga, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan rasmiy manbalarga xakerlar tomonidan qilinayotgan kiberhujumlardir. Keyingi yillarda tez-tez tilga olinayotgan bu atama nimani anglatadi? Kiberhujum kompyuterdagi axborot tizimlariga, infratuzilmalarga qaratilgan hamda kiberxavfsizlik uchun tahdid soluvchi tajovuzkor harakatlardir.

Hujjatlar faqat faktlardan iborat ma'lumotlar manbaigina emas, balki ular yaratilgan jamiyatning madaniy, ijtimoiy va tarixiy tomonlarini ham aks ettiruvchi

ko'zgudir. Hujjatlarni tahlil qilish til evolyutsiyasi, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va boshqalar haqida noyob va ajoyib ma'lumotlarni berishi mumkin. Ko'p tillar va rang-barang madaniyat, urf-odatlar mavjud bo'lgan dunyoda hujjat tarjimasini xalqaro aloqa, biznes va diplomatik aloqalar uchun juda muhimdir. Shu tufayli ixtisoslashgan tarjimonlarning matnlarni madaniy va lingvistik xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish ustida ishlashlari bugungi davr taqozosidir.

Ma'lumki, hujjat uchun qog'oz ishlab chiqarish daraxtlarni kesish va katta miqdordagi suvni sarflashni talab qiladi. Bu esa o'rmon va suv zaxiralarning kamayishi, ekologik inqirozning tezlashishiga sabab bo'ladi. Shu sababli ish yuritishda qog'oz hujjatlardan elektron hujjatlarga o'tish jarayoni amalga oshmoqda. Elektron hujjatlar bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Elektron hujjatni tuzish. Bunda, asosan, Word va Excel dasturlari yordamida hujjat tuziladi, tahrirlanadi; doc, pdf hamda boshqa formatlarda saqlab qo'yiladi.

2. Elektron hujjatni uzatish. Bu bosqich Internet orqali amalga oshiriladi. Zarur hujjatlarni yetkazishda elektron pochta, telegram, shaxsiy kabinet kabi elektron manzillardan foydalaniladi.

3. Elektron hujjatlar xavfsizligini ta'minlash. Elektron hujjatlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilishning juda ko'p yo'llari bo'lib, eng keng tarqalgan va qulay usul hujjat yoki arxivga parol o'rnatishdir. Yoki hujjatga uni tahrirlash yoki undan nusxa olish mumkin emasligi haqida ma'lumot kiritish ham samarali usul hisoblanadi.

Hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish natijasida:

- qog'oz sarfi kamayadi;
- arxiv yuritishning moliyaviy va ishchi kuchi xarajatlari muammosi hal bo'ladi;
- yo'qolgan hujjatlarni qayta rasmiylashtirish zaruratiga hojat bo'lmaydi.

Keyingi yillarda nafaqat ish yuritish, balki jamiyatimizning ko'p sohalarida, fuqarolarning kundalik faoliyatida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) katta o'rin egallab bormoqda. YIDXP nima? YIDXP – “bu butunjahon internet tarmog'ida foydalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari hamda boshqa idoralar tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi internet portal”.¹ Yagona interaktiv davlat xizmatlari

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>

portali haqida <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP> havolasi yoki ushbu QR kod orqali to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin [6].

Google orqali ish yuritish, hujjat tuzish, uni tahrirlash uchun zarur manbalarni topib ulardan foydalanish mumkin. Bu, birinchidan, vaqtni tejash, ikkinchidan, hujjatni to'g'ri, aniq va ishonchli tuzilishini ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari (Monografiya). – T.: Fan, 2007.
2. Aminov M. va b. Davlat tilida ish yuritish (Amaliy qo'llanma). T.: O'zbekiston, 2021
3. Suyarova A. O'zbek tilida ish yuritish (uslubiy qo'llanma), Namangan, 2018.
4. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, 2019.
5. <https://fayllar.org/hujjat-turlari-va-xususiyatlari.html>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/YIDXP>
7. www.ziyonet.uz